



Письменная речь должна быть и правильной, и точной, и краткой, и самобытной, и доступной, и осмысленной, и эмоциональной. Главнейшим из них будет все же правильность, то есть умение пишущего выражать свои мысли грамотно, в соответствии с существующими в данную эпоху нормами правописания, а также нормами орфографии и пунктуации.


### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1.Айвазян, О. О. Изложение как важная форма развития русской связной письменной речи учащихся начальных классов [Текст] О. О. Айвазян // Вестник Адыгейского государственного университета. Сер. 3: Педагогика и психология. — 2010. — № 3. — С. 88-92.

2.Айвазян, О. О. Типология ошибок в русской связной письменной речи учащихся начальных классов [Текст] О. О. Айвазян // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия: Педагогика и психология. — 2011. — № 2. — С. 145-148.

3.Айнетдинова, И. Г. Особенности механизмов письменной речи у детей (теоретический аспект) [Текст] : И. Г. Айнетдинова, Н. М. Трубникова // Специальное образование. — 2008. — № 12. — С. 9-17.

1. <http://classcom.uz>\ \ \ <https://www.yandex.ru>
- 2.<http://www.ziyonet.uz> \ <http://infolib.uz>
- 3.<http://www.potehechas.ru\zadachi\zadachi.shtml>





## TOJIDDIN ABDULVAHHOB IBN ALI IBN ABDULKOFIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

**Raymberdiyev Ahad**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*1-bosqich magistranti*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada ash'ariy ta'lifot olimlaridan hisoblangan Tojiddin Abdulvahhob ibn Ali Ibn Abdulkofiyning hayoti, ilmiy faoliyati va yozgan asarlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, Tojiddin Subkiyning ta'lim olgan ustozlari, u o'r ganib, tadqiq qilgan asarlar haqida ham so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tojiddin Subkiy, kalom, aqida, fiqh, usulul fiqh.

## LIFE AND SCIENTIFIC ACTIVITY OF TAJIDDIN ABDUL WAHHAB IBN ALI IBN ABDUL KAFI

**Annotation:** This article provides information about the life, scientific activity and writings of Tajiddin Abdul Wahhab ibn Ali Ibn Abdul Kafi, one of the scholars of Ash'ari doctrine. There is also talk of Tajiddin Subki's trained teachers and the works he studied.

**Keywords:** Tajiddin Subki, kalam, aqeedah, fiqh, usulul fiqh.

## ЖИЗНЬ И НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАДЖИДДИНА АБДУЛА ВАХХАБА ИБН АЛИ ИБН АБДУЛ КАФИ


**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о жизни, научной деятельности и трудах Таджиддина Абдул Ваххаба ибн Али ибн Абдул Кафи, одного из знатоков учения ашаритов. Также говорят о подготовленных учителях Таджиддина Субки и о произведениях, которые он изучал.

**Ключевые слова:** Таджиддин Субки, калам, акыда, фикх, усулул фикх.

Imom, qozilar qozisi, Abdul-Vahhob Taqyiddin o'g'li Abil-Hasan Ali Zaynuddin Abdul-Kofining o'g'li Ziyouddin Ali Tamomning o'g'li Yusuf Yahyo o'g'li Umar Usmon o'g'li Ali Sivar o'g'li Solim as-Subki al-Ansoriy al-Xazraji ash-Shofe'iy al-Ash'ariy.

Uning kunyasi Abu Nasr, laqabi Tojuddin (Islom toji). Uni Misr qishloqlaridan biri hisoblangan subklik deyishadi. U hijriy 727-yilda Qohirada tavallud topgan.

Imom Tojuddin ilm bilan nom qozongan oilada voyaga yetgan. Otasi shayx, imom, shayx ul-islom Takiyuddin Ali Abdul-qofiy (vaf. 756-hijriy) faqih, usuliy, turli ilmlarda foydali asarlar muallifi, bobosi Zaynuddin Abdul-qofiy (vafotи hijriy 735-yil), uning katta akasi Bahouddin Ahmad Ali o'g'li (vafotи hijriy 773-yil), ikkinchi





ukasi Jamoliddin Husayn Ali o'g'li (vaf. 75- hijriy) – barchasi buyuk olimlardan hisoblangan. Tojuddin ilmiy muhitda ulg'aydi va Misrda bir guruh olimlarning saboqlarini tingladi, keyin otasi bilan 739-yilda Damashqqa keldi va Hofiz Abul-Hajjoj al-Mizziydan tahsil oldi, Imom az-Zahabiy bilan bir joyda bo'lishgan edi. Imom Tojuddin Damashq va boshqa shaharlarning ko'plab madrasalarida dars bera boshladi.

U "Aziziya", "G'azaliya", "Azraviya", "Nosiriya", "Dorul Hadis Ashrafiya", "Shayxuniya" va boshqa ko'plab madrasalarda dars bergen, ko'p marotaba hakamlik qilgan, musibatlarga sabr ko'rsatgan olimlar qatoriga kiradi.


Tuqayuddin ibn Rofi'adan yakuniy bilim olgan. Hadislarni puxta o'rgangan, "al-ajza – qismlar" va "tamaki"larni yozgan. Shu bilan birga fiqh, usul va arab tilini shunday o'rgandiki, yoshlidan qobiliyatli, malakali mutaxassis bo'lib yetishdi. U ajoyib she'rlar va nasrlat ham yozgan. Ibn al-Hojibning "Muxtasar"i va Bayzoviyning "Minhaj"iga [usul bo'yicha kitob] sharh yozgan. Fiqhga oid "At-Toshix ala at-tanbih val minhaj va tashix" va "At-tarshih at-tashix" kitoblarini ham yozgan. «Jam` al-javomi» asarida usul assolarini qisqacha bayon qilib, unga «Man` al-mavoni» sharhini yozgan. "Al-Qavoid al-Mushtamal ala al-ashbah va an-nazoir" kitobini ham yozgan. Shuningdek, u kuchli notiq sohibi ham edi. shuningdek, o'z ishini puxta bilimdoni hisoblanardi.

### Uning ustozlari:

Otasi shayx ul-islom Takiyuddin as-Subkiy (683-756),  
Imom, hofiz, tarixchi Shamsuddin az-Zahabiy (673-748),  
Imom, Hofiz Jamoliddin Abul-Hajjoj al-Mizziy (654-742),  
Imom, mufassir, nahvshunos olim Abu Hayyon al-Andalusiy (654-745 h),  
Imom Shamsuddin ibn an-Naqib (661-745), Imom an-Navaviyning safdoshi.  
Imom, Hofiz Fathuddin Ibn Said an-Nas (671-734),  
Imom Izzuddin ibn Jamo (694-767),  
Imom Sharafuddin Yahyo ibn Yusuf al-Maqdisiy, ibn al-Misriy (vaf. 737-hijriy),  
Imom Abdul-Muhsin ibn as-Saabuniy al-Misriy (vaf. 736-hijriy).

### Uning shogirdlari:

Imom Shamsuddin al-Goziy (vaf. 770-hijriy),  
Alloma Zaynuddin al-Kurshiy (vaf. 792-hijriy),  
Shayx Ibn Sind (vaf. 790-hijriy),  
Alloma Ibn ash-Shurayshiy (vaf. 795-hijriy),  
Hofiz Sharafuddin al-Goziy (vaf. 799-hijriy),  
Shayx Ibn Jabbob (vaf. 800)  
Shayx Shihobuddin al-G'ayzoriy (vaf. 808).  
Shayx Jaloliddin al-Hamaviy (vaf. 809).  
Hofiz Ahmad ibn Hoji (vaf. 816).  
Alloma al-Fayruzobodiy (vaf. 817).





Uning kitoblari hayotlik davridayoq tarqalib, katta muvaffaqiyatga erishdi. U tabaqot janrida ham ijod qilgan Tabaqotlari - Kubro (katta), Vusto (o'rtalari) va Sug'ro (kichik) yozgan. Ibn Naqib unga fatvo va tadris (tadris) qilishga ruxsat beradi. Damashqning ko'plab madrasalarida dars bergan. U qaror qabul qilishda (xukum) otasining o'rnnini egallagan, so'ngra otasining buyrug'i bilan mustaqil ravishda qarorlar qabul qila boshlagan. Keyin otasi yordami bilan "Dor al-hadis al-ashrafiya"ga rahbarlik qildi. Keyinchalik, u 754-yilda hukumat lavozimini egalladi. Juma masjidining bosh xatibi hisoblanardi. U butun Shomning eng muhim qozisiga aylandi. Shu sababdan ham uning boshiga birin-ketin katta musibat va sinovlar tushdi, lekin shu bilan birga u barcha sinov va qiyinchiliklarga bardosh berdi. Va u o'z lavozimiga qaytganida, u o'ziga yomonlik qilganlarning hammasini kechirdi. U saxovatli, hurmathli inson edi. Shuningdek, u 757-yilning rabiul-avval oyida otasi tirikligida qozi bo'lgan birinchi kishidir. Keyin 759-yilning sha'bon oyida u bu lavozimdan chetlashtirilib, Abu al-Baqoni tayinlashdi, biroq Shavval oyining boshida uni qaytarib lavozimga tayinlashdi.

Uning oxirgi marta lavozimidan chetlatilishining eng muhim sababi shu ediki, Sulton 69-yilning Jumadul-avval oyida savdogarlardan zakot yig'ish to'g'risida buyruq chiqarganida, valiylardan haddan tashqari ko'p pul topilgan edi. Lekin u Qozi bo'lgan holda, oluvchining ismi ko'rsatilmagan hujjatlar (orderlar) bo'yicha tekshiruv o'tkazilgan. Va yetimlarga qaragan odamdan qozi bu miqdorni olganini tan olishini istashdi, lekin u rad etdi. Va keyin qozi lavozimidan chetlatildi.

Uning vafot etishi 771-yil xijriy yilning zul hijja oyining 7-kunida vafot etadi.

Uning vafoti sababi esa manbalarda shanba kuni kechasi o'lat bilan kasallangan. Shundan so'ng seshanba kuni vafot etgan.

Hulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki ushbu biz o'rganayotgan olim mutakallim Tojiddin Abdul Vahhab ibn Ali ibn Abdulkofiy hayoti va u kishining ilmiy faoliyati borasida borasida o'zbek tilida manbalarda uchramaydi. Biroq arab tilida rus tili hamda ingliz tilida ma'lumotlar topishligimiz mumkin. Shuning uchun ushbu olimning hayoti o'rganib uni tadqiq qilishligimiz uning boy ilmiy me'rosini o'rganishimiz lozim bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. الـ كـ بـ رـى الشـافـعـيـة طـ بـ قـاتـ كـ تـابـ ٤ خـلالـ مـنـ الـأـدـب يـةـ الـقـضـاـيـاـ وـ الـسـبـكـيـ الـدـيـنـ تـاجـ
2. الـ حـسـقـلـانـيـ حـجـرـابـنـ الـ كـامـنـةـ الـدـرـرـ ٤٢٧/٢
3. الـ شـوـكـانـيـ لـإـمـامـ الـطـلـاعـ الـبـدرـ ٤١٠/١

